

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra)

birlik





o'tgan yilga nisbatan % da



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(yanvar oyida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2023- yil yanvar oyida, 313 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 216 ta, oilaviy korxonalar - 53 ta, xususiy korxonalar - 35 ta, muassasalar - 6 ta va boshqalar - 3 tani tashkil etdi.



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 6 390 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 472 taga yoki 7,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 486 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41 taga yoki 0,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 53 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga yoki 49,5 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 14 708 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 537 taga yoki 20,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 207 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 615 taga yoki 13,9 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yil yanvar oyida, yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 216 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 taga yoki 15,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 650 tani tashkil etib, ulardan 587 tasi yoki 90,3 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yxatdan o'tgani 60 taga yoki 10,2 foizga, faoliyat ko'rsatayotgani 14 taga yoki 2,4 foizga ortganligini ko'rish mumkin.

2023- yil yanvar oyida, viloyati-mizda 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




29 309
ro'yxatdan o'tgan

25 983
faoliyat
ko'rsatayotgan

306
2023- yilda yangi
tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

11



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami	5 832	7 688	9 552	11 592	13 702
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	630	837	1 327	1 695	1 983
sanoat	957	1 231	1 508	1 819	1 854
qurilish	989	1 368	1 559	1 815	2 024
savdo	1 725	2 370	2 992	3 710	4 438
tashish va saqlash	506	580	631	656	675
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	222	300	364	448	504
axborot va aloqa	81	103	113	144	190
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	68	91	121	162	183
boshqa turlar	654	808	937	1 143	1 356

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami	188	367	430	573	587
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	57	91	108	125	117
sanoat	52	99	118	138	128
qurilish	10	21	24	36	40
savdo	38	107	132	212	232
tashish va saqlash	8	7	8	10	13
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	18	16	21	22
axborot va aloqa	1	2	2	2	2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	5	8	7
boshqa turlar	14	18	17	21	26

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	587	138	449
Termiz sh.	345	34	311
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	21	6	15
Bandixon	4	2	2
Boysun	8	5	3
Muzrabot	14	6	8
Denov	17	9	8
Jarqo'rg'on	13	7	6
Qumqo'rg'on	14	6	8
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	20	10	10
Termiz	46	14	32
Uzun	41	20	21
Sherobod	12	6	6
Sho'rchi	16	7	9

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 33 513 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,1 %), Denov (11,6 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (7,0 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Sherobod (6,7 %), Termiz (6,4 %), Sariosiyo (5,3 %), Uzun (5,2 %), Angor (4,8 %), Qiziriq (4,7 %), Boysun (4,7 %), Muzrabot (4,6 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2023- yil yanvar oyida, birlikda)

2023- yil yanvar oyida, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 313 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda ularning Termiz sh. (19,2 %), Qiziriq (13,1 %), Denov (10,2 %), Jarqo'rg'on (8,3 %), Sherobod (7,7 %), Sho'rchi (6,1 %), Oltinsoy (5,7 %), Sariosiyo (4,8 %), Termiz (4,8 %), Uzun (4,8 %), Qumqo'rg'on (3,8 %), Angor (3,5 %), Muzrabot (3,2 %), Bandixon (2,6 %) va Boysun (2,2 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 207 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,5 %), Denov (9,8 %), Termiz (8,2 %), Jarqo'rg'on (7,0 %), Sherobod (6,8 %), Qumqo'rg'on (5,9 %), Sho'rchi (5,7 %), Boysun (4,9 %), Angor (4,9 %), Qiziriq (4,5 %), Muzrabot (4,2 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (2,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni


(2023- yil yanvar oyida, birlikda)




2023- yil yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 53 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Denov (11,3 %), Qiziriq (11,3 %), Oltinsoy (9,4 %), Sherobod (9,4 %), Uzun (9,4 %), Sariosiyo (7,5 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Termiz sh. (5,7 %), Angor (5,7 %), Muzrabot (5,7 %), Sho'rchi (5,7 %), Termiz (5,7 %), Qumqo'rg'on (3,8 %) va Bandixon (1,9 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2023- yil yanvar oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.



The screenshot shows the website of the Uzbekistan Statistical Agency (UZSTAT) with a registration form for enterprises and organizations. The form is titled "Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot" (Information about enterprises and organizations). It includes a search bar for the STIR code, a dropdown menu for the legal form (currently showing "J b m m v f"), and a button to "Ochish" (Open).

UZSTAT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

11-51 - Ishonch telefoni
(71) 203-80-00 - Call Centre
Tadbirkorlar uchun: hisobot.stat.uz ga o'tish

QO'MITA HAQIDA ME'YORIY HULLIATLAR OCHIQ MALUMOTLAR NASHRLAR INTERAKTIV XIZMATLAR MATRIJOT XIZMATI MUHOJAJATLAR AXBOROT RESURSLARI

O'ZBEKISTON (2022-yil g...)

YALPI ISHCHI MAHSULOT 105,7%
SANOAT 105,2%
KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G' RISIDA MA'LUMOT
QURILISH ISHLARI 106,6%
DAROMATLARGA QARSHI KAPITALGA QOYILGAN INVESTITSİYALAR 0,9%

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Orqaga qaytish

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Agar tushunarsiz bo'lsa, rasmini bosing:
J b m m v f

Rasmdagi kodni kiriting

Ochish

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**